

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Lutfillova Xamida</i>	<i>Murodillova</i>	Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ		
ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА		12-17
<i>Ezhambergenov Xaitboy</i>	<i>Xamidulla</i>	Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ		
ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)		18-25
<i>Esonov Ziyodbek</i>	<i>Yuldashevich</i>	Esonov Ziyodbek Yuldashevich
QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI		26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i>		Mamatqulov Bekzod
O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI		
VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI		32-38
<i>Asadova Ra'no</i>	<i>Baymanovna</i>	Asadova Ra'no Baymanovna
O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK		
ISTIQBOLLARI		39-42
<i>Saidova Raxima</i>		Saidova Raxima
O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI		43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i>	<i>Ergasheva Ra'no</i>	Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI		49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>		Iriskulov Bekzod Jaxongirovich
TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM		
MULOHAZALAR		56-60
<i>Mirsoatova Sayyora</i>	<i>Turg'unovna</i>	Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI		61-66
<i>Luhmonov Shaxzod</i>	<i>Sayfiiddin</i>	Luhmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-		
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР		67-71
<i>Axmedov Bekzod</i>		Axmedov Bekzod
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH		
TADBIRLARI		72-75
<i>Mamatov Jasurbek</i>	<i>Qodirqul o'g'li</i>	Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI		
(UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)		76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek</i>	<i>Toshpo'latovich</i>	Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY		
YO'NALISHLARI		81-88

Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA 116-125

Кетманов Авазбек Маликович
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI 135-142

Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
 OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
 TASNIFI 153-160

Sharipov Komil
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
 UZBEKISTAN 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
 TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
 XUSUSIYATLARI 197-202

<i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>	
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>	
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	234-243
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>	
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i>	
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>	
NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>	
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
MAHMUD AZ-ZAMAHSARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>	
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>	
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarikovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudalievna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

<i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI	382-385

<i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI	386-390

<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>	
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI	391-396

12.00.00 – YURIDIК FANLAR

<i>Рузметов Хайрулла</i>	
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ	397-402

<i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>	
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА	403-410

<i>Abdubannayev Umidjon</i>	
AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	411-421

<i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>	
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ	422-427

<i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>	
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР	428-433

<i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>	
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ	434-439

<i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>	
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA	440-446

<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ	447-451

<i>Нодирахон Абдурахманова</i>	
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	452-462

<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>	
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ	463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Xusanova Mohira</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH	470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>	
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>	
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>	
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>	
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>	
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>	
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>	
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>	
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024

Accepted: 5 November 2024

Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

CONTRIBUTION OF WOMEN AND GIRLS OF SAMARKAND REGION TO SCIENCE, EDUCATION AND INNOVATION

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna

FerSU, Associate professor of the department of World history

Abstract. The article describes images that are the oldest among the existing rock paintings in our country, associated with the labour activity of primitive people, that is, hunting, as well as with primitive beliefs and religious views.

Key words: paleolithic period, rock paintings, petroglyphs, primitive images, ocher, Sarmishsoy paintings, Zarautssoy Gulch, animal images, hunting scene.

QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna

FarDU Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada yurtimizdag'i mavjud qoyatosh suratlari orasida eng qadimgilari bo'lmish Sarmishsoy va Zarautssoy qoya toshlariga chizilgan ibtidoiy odamlarning mehnat faoliyati, ya'ni ovchilik, ibtidoiy e'tiqodlari va diniy qarashlari zamirida paydo bo'lgan sodda va oddiy ko'rinishlar bilan bog'liq tasvirlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: paleolit davri, qoyatosh rasmlari, petrogliflar, ibtidoiy tasvirlar, oxra, Sarmishsoy suratlari, Zarautssoy darasi, hayvon tasvirlari, ov manzarasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N09>

Kirish. Insoniyat tarixida ilk san'at asarlari o'rta paleolit davridan boshlab mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Yevropa neandertallari qoya toshlarga rasmlar chizish va naysimon hayvon suyaklaridan musiqa asboblari yasash kabi san'at bilan aloqador faoliyatlarni o'zlashtirganlar[1:1-230]. Shu davrdan boshlab ibtidoiy odamlar tabiiy bo'yoq – oxradan foydalanib badanlarini bo'yay boshlaganlar. Avvaliga sovuqdan saqlanish uchun ushbu bo'yoqlarga hayvon yog'larini aralashtirib badanlariga surgan odamlar so'nggi paleolit davriga kelib, bu ishni estetik maqsadlarda amalga oshira boshlaganlar.

Qoyatosh rasmlari Afrika, Amerika, Yevropa va Avstralaliyaning tog'lik hududlarida ayniqsa ko'p uchraydi; Rossiya (Amur, Lena, Yenisey, Ob, Irtish, Baykal ko'li sohillari), Qozog'iston, O'rta Osiyo (Qoratog', Bo'kantog', Tomditog', Tyanshan, Pomir, Nurota va boshqalar)dan topilgan petroglif qoyatosh rasmlari ham diqqatga sazovor. Fransiya, Ispaniya, Italiya, Hindiston, Rossiya (Lena, Amur, Baykal ko'li sohillari, Ural, Dog'iston), O'zbekiston

(masalan, Zarautsoy rasmlari, Sangijumon, Oqsoqolotasoy rasmlari)da rangli qoyatosh rasmlari topib o'rganilgan bo'lib, ular avvalo san'at obidasi sifatida san'at tarixini o'rganishda, arxeologik va tarixiy manba sifatida ibtidoiy va qadimgi qabilalarning ijtimoiy hayoti hamda ruhiy olamini o'rganishda katta ahamiyatga ega[3:710-714].

Samarqand makonida mezolit va neolit davri yodgorliklaridan topilgan juda ko'p miqdordagi oxra qoldiqlari yuqoridagi fikrimizning dalili bo'la oladi[11:27]. Samarqand makonidan va yana keyingi tosh davri yodgorliklarida keng tarqalgan taqinchoq sifatida foydalanilgan chig'anoqlarning topilishi o'sha vaqtarda madaniyatning yuqori darajada taraqqiy etganligiii ko'rsatadi[4:15]. O'rta va yangi tosh asrlaridan boshlab toshdan va suyakdan yasalgan taqinchoqlar keng tarqaldi. Yevropada o'rta paleolit davridan boshlab uchraydigan qoyatosh suratlari yurtimizda mezolit davridan boshlab uchraydi. Bu esa, O'zbekiston kishilik madaniyati taraqqiyotining qadimiyligi o'choqlaridan biri ekanligini yana bir isbotidir. Ushbu suratlар tog' toshlariga ishlangan odam, hayvonlar, qurol-yarog', uy-ro'zg'or, kiyim va boshqa buyumlarning tasvirlaridan iborat bo'lib, ular o'tkir tish quroli yordamida o'yib-cho'ichlab yoki tabiiy bo'yoqlar yordamida chizib ishlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yurtimizdan topilgan 100 ga yaqin qoyatosh suratlari orasida eng qadimgilari Sarmishsoy va Zarautsoy rasmlaridir.

O'z bag'rida qadimiyligi suratlarni saqlab kelayotgan Sarmishsoy Zarafshon daryosi o'rta oqimining o'ng tomonida yastanib yotgan uncha baland bo'limgan Qoratog'ning janubiy yonbag'rida joylashgan bo'lib, Navoiy shahridan 40-45 km shimoli-sharqdadir. Sarmishsoy suratlari haqida dastlabki qisqacha ma'lumot 1958-yili «Qizil O'zbekiston» gazetasida e'lon qilingan.

Akademik Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi Mohandaryo ekspeditsiyasi a'zolari A.R.Muhammadjonov, M.R.Qosimov, U.I.Islomov, N.X.Toshkenboyev va boshqalar Sarmishsoy hamda Qorong'iungursoyda ilmiy kuzatishlar olib bordilar. 1964-yili N.X.Toshkenboyevning kuzatishlarning dastlabki natijalari haqidagi maqolasi e'lon qilingai[20:15]. 1968-yili Sankt-Peterburglik biolog V.Tanaysiychuk Sarmishsoy suratlari haqida maqola yozgan[19:14]. 1966-1967-yillarda J.Kabirov bu yerdan 2000 ga yaqin qoyatosh suratlarini aniqlaydi[10:9-10]. 1969-1970-yillarda Sarmishsoy suratlarini o'rganish uchun maxsus ilmiy guruh tuzildi va Qoratog'ning Tongotar, Biron, G'o'rtut, Qilichlik, Toytuyoq, Qorachorvoq, Umartol, Otchopgan hamda Naymanchaliksoy kabi daralaridan yangi yodgorliklar topildi[6:34; 8:12; 9]. Ushbu soylarning fauna va florasi qadimdan juda boy bo'lib, tabiat go'zal hisoblangan Sarmishsoy suratlari mazmuni hamda ifoda etilgan manzaralari jihatidan xilma-xildir. Bu yerdan jami 3500 ta tasvir aniqlangan bo'lib, ularni 40 turga ajratish mumkin. Bu suratlar ishlanish uslubiga ko'ra sxematik, kontur tarzida, soya uslubida, naqshdor bezakli hamda kontur-soya shaklidagi turlarga ajraladi.

Sarmishsoy suratlari turli davrlarga oid bo'lib, ularning yoshini aniqlash eng mushkul masala hisoblanadi. A.P.Okladnikov ta'kidlaganidek, qoyatosh suratlarining yoshini aniqlash jez qurollarini sanalashdan ko'ra mushkulroqdir[14:107]. Lekin, A.P.Okladnikov, D.A.Olderogge, A.A.Formozov, A.N.Bernshtam, V.A.Ranov, L.R.Kizlasov, V.N.Chernetsov va boshqa olimlarning qoyatosh suratlarini davrlashtirish, ularning nisbiy sanasi haqidagi fikr-mulohozalari yurtimizdagи bunday rasmlarning sanasini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir[2:104-106].

Natijalar va muhokama. Sarmishsoy suratlari turi, mazmuni, ishlanish texnikasi, uslubi, saqlanishi, o'lchamlari jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Suratlar orasidagi ushbu farq tasodifiy bo'lmay, ularning turli davrlarda ishanganligidan dalolat beradi. Sarmishsoy suratlari ibtidoiy, ilk temir va so'nggi davrlarga ajratiladi. Ular orasida mil. avv. 1-ming yilliklarga ishlanganlari ham bor[12:45-46]. Bu suratlarda odam, ibtidoiy buqa, sigir, bizon, tog' echkisi, asl bug'u, mushuksimonlarga mansub yirtqichlar (qoplon, leopard, gepard, sher, yo'lbars), qulon hamda yirik shoxli xonaki qoramol, it va boshqa hayvonlar tasvirlangan. Shu bilan birga, qoyatoshlarda sodda va murakkab yoyning hamda nimaning tasviri berilganini aniqlash imkoniyati bo'lmasan ayrim suratlar uchraydi[7:13].

Quyosh nuri, yog'in, shamol, xullas, tabiatning xilma-xil hodisalari ta'sirida zarar ko'rgan qadimiy qatlamlarga mansub suratlarning ustki qismi, ba'zi toshlarning yuzasi qorayib, uniqib ketgan, nuragan, yemirilgan va darz ketgan.

Sarmishsoy suratlarining qadimiy qatlami tematik jihatdan ham boydir. Qoyalarda ibtidoiy davrning iqtisodiy hayoti bilan bog'liq ba'zi hodisalar, jonli manzaralar uchraydi. Bular orasida ibtidoiy buqa, sigir, tog' echkisi, asl bug'u, qulon va yirtqich hayvonlarni ovlash ifoda etilgan manzaralar diqqatga sazovordir. Rasmlar orasida mil. avv. 1-ming yilliklar arafasida butunlay qirilib ketgan ibtidoiy tur va bizonlarning uchrashi suratlarning qadimiy ekanligini ifodalovchi asosiy dalillardan biridir[6:410-411].

Sarmishsoy darasi va uning atrofidagi soylardada 10000 dan ortiq petrogliflar borligi aniqlangan. Rasmlarning asosiy qismi soyning o'rta qismida joylashgan zinch toshli 22,5 kilometr masofadagi qoyatoshlarga o'yib ishlangan. Tasvirlar kembriy geologik davrida shakllangan qizil va qora rangli qumtoshlar hamda slanetsli qoyalarning tik sirtiga, ba'zilari yotiq sirtiga solingan. Shu joyda qadimiy ko'chmanchi va o'troq aholining mozor qo'rg'onlari joylashgan. Bu esa, odamlar ushbu yerga qadimdan har xil diniy marosimlar, bayramlar o'tkazish va ibodat qilish uchun qadam ranjida qilgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi[24].

Daranning juda sir-sinoatga boy tasvirlari mustaqillik yillarida ham juda ko'plab tadqiqotchilarni jalb etdi. Polsha, Norvegiya va Fransiya davlatlarining yetuk tadqiqotchilari darada ko'plab marotaba o'z tadqiqotlarini amalga oshirishdi. Natijada, oldin ma'lum bo'lmasan bir qancha qoyatosh rasmlari aniqlangan. Sarmishsoy darasi haqidagi ilmiy bilimlar kengaya bordi.

Sarmishsoyning qadimiy tasvirlari ishlanish uslubining xilma-xilligi va murakkabligi bilan keyingi davrlarga oid suratlardan keskin farq qiladi. So'nggi davr rasmlarning aksariyati soya va sxematik tarzda ishlangan bo'lsa, qadimiy suratlarda soya, kontur va naqshdor bezakli usullar ko'pchilikni tashkil qiladi. Keyingi davr rasmlarida naqshdor bezakli usul uchramaydi. Ibtidoiy buqa, bizonlarning rasmlari va ularni ovlash manzaralari Sarmishsoydan tashqari Qoratog', Bo'kantog'[17:15], Morguzar tog'larining qoyatoshlarida[23:43], So'x vohasidagi Suratlisoyda, Ko'hitang tog'ining Zarautkamar g'orlarida ham uchraydi.

Mutaxassislarning fikricha, mazkur joylardagi rasmlarning aksariyati mil. avv. VII-IV va III-II ming yilliklarga tegishlidir[5:73-82].

Carmishsoydagi barcha yodgorliklar o'zining tabiiy va tarixiy o'rnida bo'lib, asrlar davomida tabiat va inson sinovlariga dosh berib kelmoqda. Tarixiy obidalarga bo'lgan hurmat, ular to'g'risidagi bilimlarimizni boyitish madaniy meroslarimizni,xususan, Sarmishsoy darasini asrab-avaylashimizga omil bo'ladi. Tabiiy va madaniy yodgorliklarimizni saqlab qolish va

ularni kelajak avlodga o'z holicha yetkazish borasida hukumatimiz tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda «Sarmish» tabiat bog'i deb e'lon qilingan ushbu tarixiy merosning umumiy maydoni 5000 gettarni tashkil etadi. «Sarmish» tabiat bog'i O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonuni asosida nazorat qilinadi. Shuningdek, Sarmishsoy 2009-yil 14-iyulda tabiiy arxeologik muzey kompleksi-qo'riqxonasiga aylantirildi.

Bugungi kunda Sarmishsoy petrogliflari nafaqat respublika, balki jahon miqyosida ajdodlarimizdan qolgan eng sara gavhar — madaniy yodgorlik sifatida tan olinib, qalbimizga faxr bag'ishlab turibdi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, 2002-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Arxeologiya instituti, YUNESKO xalqaro tashkiloti hamda Norvegiya atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi Madaniy meros direktoratining mutaxassis olimlari (Anne-Sofiye Xyugen va Knut Xelskog) bilan hamkorlikda Sarmishsoy madaniy yodgorliklari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

2004-yildan buyon doimiy ravishda "Sarmishsoy tabiiy-arxeologik majmua muzeyi qo'riqxonasi"ga xorijiy va mahalliy sayyoohlar tashrif buyurib, ularga muzey xizmati ko'rsatilib kelinmoqda. Shu o'rinda qayd etish joizki, 2010-yil may oyida Navoiy viloyat hokimligi tomonidan O'zbekiston Ekologik harakati bilan hamkorlikda zamonaviy, rivojlangan, xalqaro muzeyshunoslik tajribasi va mavjud qonun-qoidalarga asosan Sarmishsoy tabiiy-arxeologik majmua muzeyi qo'riqxonasi hududida turistik baza hamda "Tashrifgoh" qurilishi loyihasini tayyorlashga kirishildi. Shunga ko'ra, bu yerda ko'priq qurildi, hozirga kelib yo'l va binolar barpo etish uchun tashkiliy-tayyorgarlik ishlari bajarildi.

Sarmishsoy bilan bog'liq eng katta va kutilayotgan tarixiy voqealardan biri «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi va YUNESKO vakolatxonasi tashabbusi bilan ishlab chiqilgan yirik loyiha — «Asrlar sadosi» an'anaviy madaniyat festivalining navbatdagi tantanalari joriy yilning 4-5 may kunlari Sarmishsoy darasida o'tadi. Ayni paytda mazkur festivalga Navoiy viloyatida puxta tayyorgarlik ko'rilmoxda. Ta'kidlash joizki, "Asrlar sadosi" an'anaviy madaniyat festivalining aynan mana shunday ko'hna joyda o'tkazilishi mamlakatimiz turistik salohiyatini yuksaltirish, xorijlik sayyoohlarning qiziqishini yanada oshirish, boy madaniy merosimiz, milliy hunarmandchilik, urf-odat va an'analarimizni namoyish etish va targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi[24].

Tosh asrida ishlangan qoyatosh suratlarini saqlab qolgan yodgorliklardan yana biri Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy atrofida joylashgan[5:75]. Zarautsoy darasi Ko'hitangtog'ning shimoli-sharqiy etaklarida, Termiz shahridan 110 km shimoli-g'arbda Sherobod tumani hududida joylashgan. Daraning o'ng tomonida qator g'orlar va xarsang toshlardan iborat ayvonlar mavjud bo'lib, ularning devorlari va tomlariga qizil oxra bilan qadimiy rasmlar chizilgan. Bu joydagи to'rtta g'orda suratlar aniqlangan bo'lib, birinchi g'orda beshta, ikkinchisida o'nta va uchinchisida uchta rasm topilgan. To'rtinchi g'or boshqalariga nisbatan yiriqroq, balandligi 1,5 m, kirish qismining balandligi 3,25 m, eni 4,5 m va chuqurligi 2 m ga yetadi. Fop mahalliy xalq tilida Zarautkamar deb nomlanadi. U sarg'ish ohaktoshdan tarkib topgan. Bu yerdan 100 dan ziyod qadimiy suratlar topilgan. Ular odamlar, hayvonlar hamda tushunarsiz tasvirlardan iborat. Bu rasmlardan birida xo'kiz ovlash manzarasi aks ettirilgan. Kompozitsiyada jami 20 ta tasvir bo'lib, shundan 19 tasi odamlar (ulardan 4 tasi stillashtirilgan holatda tasvirlangan). Uchta ovchi kamonlar bilan qurollangan bo'lib, o'qlarini hayvonga qaratgan holatda chizilgan. Qolgan suratdagi odamlar tanasining pastki qismiga

qarab kengayib boradigan va yuqori qismiga kelib keskin torayadigan g'alati kiyimlarda tasvirlangan. Ularning bo'yinlari uzunchoq bo'lib, qushning bo'ynini eslatadi. Bu odamlar archasimon shaklda chizilgan. Ayrim ovchilarining qo'lida Г shaklidagi predmetlar tasvirlangan bo'lib, bu bumerang yoki bolta bo'lishi mumkin. Kompozitsiyada markaziy figura xo'kiz tasviri bo'lib, u anchayin real tarzda chizilgan. Xo'kiz yaralangan, tanasiga kamon o'qlari sanchilgan holatda tasvirlangan. Bu kompozitsiya nafaqat ov manzarasi, bo'libgina qolmay, xo'kizning ikki tarafiga bo'lingan holatda turgan odamlar hamda ulardan birining yaralanganligini hisobga olsak, rasmni ikki raqib guruhning o'lja uchun bo'lgan qonli to'qnashuvi deb ham qarash mumkin. Boshqa kompozitsiyalarda jayron, it, tulki, echki va asosan xo'kizlarning harakatdagi suratlari, ularni ov qilish manzaralari tasvirlangan. Zarautsoy suratlari orasida ichki qismi nuqtalar bilan o'ralgan yopiq aylana tasviri ham bo'lib, bu qopqon deb talqin qilinishi mumkin[16:4-5].

Zarautsoy suratlarini birinchi bo'lib o'rgangan G.V.Parfyonov ularni beshta davrga: paleolit, mezolit, neolit, bronza va so'nggi davrlarga ajratgan[15:201; 18:8]. Bu fikr rassom Y.A.Roginskaya tomonidan qo'llab-quvvatlangan va u ushbu suratlarni Italiya va Afrikaning paleolit davri qoyatosh suratlari bilan o'xshashligi ta'kidlagan[21:214]. Boshqa bir tadqiqotchi A.A.Formozov esa Zarautsoyning eng qadimgi suratlarini mezolit, neolit va eneolit davrlariga xosligini ta'kidlagan[22:22]. A.A.Formozov bu suratlarni paleolit davri bilan sanalashga keskin qarshi chiqib, rasmlardagi o'q-yoy va itlar mezolit davridan avval bo'lishi mumkin emas, degan fikrni bildiradi[22:23]. A.P.Okladnikov ham yuqoridagi fikrga qo'shilib, Zarautsoy suratlarini neolit va bronza davrlari bilan sanalashni taklif qiladi. Uning fikricha, ushbu ov manzaralarida o'q-yoyning mavjudligi suratlar mezolit davri bilan ham sanalanishi mumkinligini bildiradi. Negaki o'q-yoy mezolitda ovchilikning asosiy quroli darajasiga ko'tarilgan[13:72].

Xulosa. Qoyatosh suratlari nafaqat tabiatning beba ho yodgorligi, balki, insoniyat sivilizatsiyasini o'rganish, uning noyob durdonalaridan bahramand bo'lishga xizmat qiluvchi betakror manba sifatida bizga qadimgi davr aholisining turmush tarzi, mehnat faoliyati, xo'jaligi va g'oyaviy asoslari kabi tarixidan so'zlab beradigan san'at galereyasidir.

Xalqning umummilliy boyligi bo'lgan madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha 2019–2020-yillarga mo'ljallangan «yo'l xaritasi»da Sarmishsov, Xonbandi, Zarautsoy qoyatosh rasmlari YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi ko'zda tutilgan edi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik izchil davom ettirilmoqdaki, yaqin kelajakda O'zbekistondagi Sarmishsov, Xonbandi, Zarautsoy qoyatosh rasmlari bilan birga «Sahrodagi qasrlar», «Qadimiy Termiz» obektlarini YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish choralari ko'rilmoxda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Lumley H. (de) Origine et Evolution de 1 homme. Paris, 2001.
2. Mirsoatova S. O'zbekistonning tosh davri arxeologiyasi va antropogenezi masalalari. Monografiya. – Farg'ona, 2017.
3. Muxtarov G.A. Chotqol tog' tizmasidagi yangi topilgan qoyatosh rasmlar joylashgan o'rni va landshafti. O'tmishga nazar jurnali, №SI-3. 2021.

4. Джуракулов М.Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. Изд-во «Фан». Ташкент, 1987.
5. Кабиров Дж. Древнейшая наскальная живопись Зараутсая. В кн.: Первобытное искусство. Новосибирск.: 1976.
6. Кабиров Дж. Древние наскальные изображения Карагатай. АО 1970 г. Изд-во «Наука». – М.: 1971.
7. Кабиров Дж. Исследование наскальных изображений в Узбекистане. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1974.
8. Кабиров Дж. К датировке петроглифов Узбекистана III-II тыс. лет до н.э. ТД сессии, посвящённой итогам полевых археологических исследований 1972 г. в СССР. Изд-во «Фан». Ташкент, 1973.
9. Кабиров Дж. Наскальные изображения Сармичсая. ИМКУ № 9. Изд-во «Фан». – Ташкент, 1972.
10. Кабиров Ж. Ибтидоий давр беҳзодлари. «Фан ва турмуш». 1-сон, Тошкент.: 1970.
11. Лев Д.Н. Поселение древнекаменного века в Самарканде. Исследования 1958-1960 гг. Труды СамГУ, вып. 135. Самарканд, 1964а.
12. Мирсаатов Т.М., Кабиров Дж., Экспериментальное изучение техники нанесения петроглифов в ущелье Сармичсая. ИМКУ, №11. Ташкент, 1974.
13. Окладников А.П. Верхнепалеолитическое и мезолитическое время. В кн.: Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М., – Л.: 1966.
14. Окладников А.П. Петроглифы Ангары. Изд-во «Наука» АН СССР. – М.: 1966.
15. Парфенов Г.В. Картинная галерея первобытного искусства. Следопыт Средней Азии. – Ташкент, 1963.
16. Парфенов Г.В. Первобытные художники. «Фотогазета», №6-7. – Ташкент, 1945.
17. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана (с древнейших времен до середины девятнадцатого века). Изд-во «Искусство». – М.: 1965.
18. Рогинская А. Зараутсай. – М. – Л.: 1950.
19. Танасийчук В. Ущелья волшебных зеркал. «Наука и жизнь». №8. Ташкент.: 1969.
20. Ташкенбаев Н.Х. Наскальные изображения Сармича и Каравунгурсая. ИМКУ №3, Ташкент, 1966.
21. Формозов А. А. Книга о древней наскальной живописи в Узбекистане. СЭ, №4. М.: 1951.
22. Формозов А.А. О наскальных изображениях Зарауткамара в ущелье Зараутсай. – СА. №4. – М.: 1966.
23. Формозов А.А. Очерки по первобытному искусству. Изд-во «Наука». М.: 1969.
24. <https://meros.uz/uzc/object/sarmishsoy-darasi>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масьулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).